



"TASDIQLAYMAN"

Samarqand markaziy GQE

boshlig'i

S.Yu. Nematullayev

«26» 03 2024 yil

Samarqand markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi Zarafshon DE
xodimlari safida o'tkazilgan yig'ilish
BAYONNOMASI № 7

2024 yil 26 mart

Samarqand shahri

Qatnashdilar: Samarqand MGQE Zarafshon DE fizik sinov laboratoriyasi va
namunalarni maydalash sexi ishchi xodimlari, jami-12 nafar.

Samarqand MGQE korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha mas'ul xodim A.B.Olmasov, yig'ilish ishtirokchilarini "O'zbek geologiya qidiruv" AJning "Korrupsiyaga qarshi tasdiqlangan ichki me'yoriy hujjatlarni amalga kiritish to'g'risida"gi 2023 yil 14 avgustdagi 103-sonli buyrug'i bilan qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlari bilan tanishtirdi. Xususan, "O'zbek geologiya qidiruv" AJning qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish Siyosatining maqsadi, mazmun mohiyatini, ariza beruvchining huquqi va majburiyatini tushuntirdi, jamiyatning ichki aloqa kanallari ishonch telefon raqami, elektron pochta, telegram bot kanallari bilan yig'ilish ishtirokchilarini takroran tanishtirdi. Shuningdek, "O'zbek geologiya qidiruv" AJning 2023 yil 29 mart sanasidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 30 dekabrda "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomini tasdiqlash haqida"gi 829-sonli qarori ijrosini ta'minlash to'g'risidagi 49-sonli buyrug'i bilan tanishtirdi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish, bir martalik pul mukofotlari berilish tartibi va pul mablag'larining miqdori (fosh etilgan jinoyat turiga qarab) borasida tushuntirdi. Tasdig'ini topmagan va yolg'on xabar bergan shaxslarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilishini, agar ushbu holat g'arazli maqsadlarda qasddan takroran sodir etilsa yoki og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa yolg'on xabar bergan shaxslar ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishini ta'kidladi.

Q A R O R

1. Samarqand markaziy GQE va tizim osti dala ekspeditsiyalari ishchi xodimlarida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabat shakllantirish maqsadida "O'zbek geologiya qidiruv" AJning "Korrupsiyaga qarshi tasdiqlangan ichki me'yoriy hujjatlarni amalga kiritish to'g'risida"gi 2023 yil 14 avgustdagi 103-sonli, 2023 yil 29 mart sanasidagi 49-sonli buyruqlari bilan qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlarini Markaziy va dala ekspeditsiyalarida muhokama qilish hamda shu mavzuda davra suhbatlari o'tkazish.

Bayonnoma tuzdi:

A.B. Olmasov



